

O'zbek xalqi etnogenezi haqidagi fikrlarning tadriji

(A.Yu. Yakubovskiydan hozirga qadar)

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti II kurs

magistranti Valisher Abirov

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek xalqi etnogenezi haqidagi fikrlarning tadriji masalasiga bag'ishlangan va unda quyidagilar bayon qilingan: insoniyatning qadimgi madaniyat o'choqlaridan hisoblangan mintaqamiz hududidagi xalqlar ajdodlari (jumladan, o'zbek va tojik) qadim davrlardan shu hududda yashab, birlari bilan har doim moddiy va madaniy munosabatlarda aloqa qilib kelganlar. Professor A.Yu.Yakubovskiy aytganidek, "...xalq tarixini uning nomi tarixi bilan aralashtirish mumkin emas"¹. Chunki ko'rib chiqilgan arxeologik, tarixiy, etnografik, antropologik, lingvistik manbalar va adabiyotlardagi materiallar aynan shuni tasdiqlaydi.

Tarix – hech qachon maqsad-muddaoga,

manfaatlarga bo'ysunmaydi. U yaratilgan,

biz esa uni to'g'ri yetkazish bilan ovvoramiz...

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti II kurs magistranti Valisher Abirov

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida turli sohalarda kechayotgan hamkorlik, do'stlik, tarixiy birdamlikka intilishdan tashqari munozara, muhokama,

¹Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. 20 б.

ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham tez-tez sodir bo'lmoqda. Xususan, mintaqadagi xalqlarning etnik tarixini o'rganishga bo'lgan ilmiy tadqiqotlar², qarashlar³, fikrlar ba'zida tarix sahifalarida noo'rin ishlatilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...Tarix xotirasi, ...milliy o'zlikni anglashni, tabir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"⁴. Shunday ekan o'z tariximizni teran anglab yetish, o'zligimizni bilishga qaratilgan asosiy yechimdir.

A.Yu. Yakubovskiy o'zining "O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida" risolasida tarixni ilmiy asosda tahlil etishni ta'kidlab, O'rta Osiyoning markaziy hududlarida qadim zamonlardan buyon aholi yashab kelayotgan va vaqtlar o'tishi natijasida etnik (o'zbek) va Markaziy Osiyo hududidagi boshqa xalqlar o'z nomini olganligini aytib o'tadi. Jumladan, ikki daryo oralig'ida turkiy xalqlar madaniyati so'g'd sivilizatsiyasi natijasida o'zbeklar shakllanganligini, biroq o'zbek degan nom keyin berilganligini yozadi. Kushonlar zamonida O'zbekiston xalqlarining etnik tarkibida o'zgarishlar maydonga keldi. Hammadan burun saklarning anchagina qismi Qozog'iston va O'zbekiston tuprog'idan ko'chib ketdi. Ma'lumki, bu yerlardan ko'chib ketgan sakilarning asosiy ommasi Eronning sharqiy viloyatlaridan biriga joylashdilar va bu viloyat nomi nomi bilan Sakiston deb yuritiladigan bo'ldi⁵.

²Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. Толстов С. П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ. 1947. Семенов А. А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шайбани-хана: Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск 1. Труды, том XII, Сталинабад, 1954. Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: “Шарқ”, 2001. Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековье (теоретические аспекты). М. 1990. Аскарлов А.А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа. Масов Р. Родившийся на глазах истории (К вопросу образования Узбекской ССР). www.ia-centr.ru

³Ошанин Л. Б. Этногенез народов Средней Азии в свете данных антропологии // СЭ - 1947. Бернштам А.Н. Древние тюркские элемент в этногенеза Средней Азии СЭ 1947. Кармишева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М. Наука, 1976. С. 323.

Бернштам А.Н. Древние тюркские элемент в этногенеза Средней Азии СЭ 1947.

⁴Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. – Т.: “O'zbekiston”, 1997.-В.140-141.

⁵Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. 5 б.

Sakilarning o'rnini Yettisuvda usunlar, Shoshda esa qang'yuyilar ishg'ol qildilar. Qang'yuyilar O'zbekistonning qadimgi tarixida katta ro'l o'ynaydilar. Qang'yuyilar miloddan avvalgi II asrda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlaridan to Yettisuvdagi Talas vodiysigacha bo'lgan yerlarni ishg'ol qilib, asta-sekin Zarafshon vodiysiga va hatto Qashqadaryogacha siljib bordilar⁶.

Kushonlarning ko'pchiligi Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida o'tirib qolib, ular asta-sekin sug'dlarga aralashib ketganlar. Antropologik va lingvistik ma'lumotlar bo'lmaganligi uchun, kushonlar tomonidan so'g'dlarning etnik tarkibiga va tiliga qanday o'zgarishlar kiritilganini biz bilmaymiz, ammo ularning o'zgarishlar kiritganliklariga shubha bo'lishi mumkin emas⁷ deb, O'rta Osiyo o'troq aholi hududlarida o'zbek xalqining ajdodlari ko'chmanchi o'zbeklardan bir necha asr avvaldan yashab kelganligi haqida muallif fikr yuritib⁸, o'zbek etnogenezi shakllanishini qadim tarixiy bosqichlarda, katta tarixiy davr ichida turkiyzabon turg'un aholi tarkibidagi qabilalar asosini ko'rsatadi⁹.

Uzoq zamonlar mobaynida, to hozirgi kunga qadar o'zbeklarning kelib chiqishiga g'alati qarash hukm surib keldi, bu qarashga ko'ra, o'zbek xalqining tarixi ko'chmanchi o'zbeklardan boshlanadi; ko'chmanchi o'zbeklar esa, O'rta Osiyoga XV asrda yoki XVI asrning boshlarida kiraboshlaydilar.¹⁰ O'zbek xalqining asosini "ko'chmanchi o'zbeklar" emas, balki O'zbekiston hududida uzoq asrlar mobaynida murakkab enogenez protsessi orqali shakllangan barcha turk aholisi tashkil etadi¹¹.

S.P. Tolstov O'rta Osiyo xalqlarini (tojik, o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq) elat bo'lib shakllanish jarayonining nihoyasiga yetish vaqtini va bu jarayon qaysi davlat ichida o'tganligini taxminiy aniqlaydi¹². Shundan kelib chiqib

⁶O'sha asar. 5 b.

⁷O'sha asar. 5 b.

⁸O'sha asar. 3 b.

⁹O'sha asar. 20 b.

¹⁰O'sha asar. 3 b.

¹¹Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. 13 б.

¹²Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: “Шарк”, 2001. 19 б.

u o'zbek xalqining etnogenetik jarayoni Qang' davlati hududida boshlanganligi va Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashaganligi, ularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmaganligi haqida xulosa beradi. O'zbek ajdodlarining alohida elat sifatida shakllanish jarayoning nihoyasiga yetish vaqtini X – XII asrda, Qoraxoniylar davlati doirasida yakunlanganligini ta'kidlaydi¹³. Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlariga bevosita borib taqalmaydi.

Akademik A.A. Semeyonov o'tgan asrning yarmida shunday yozgan edi: "Turk-mo'g'ul qabilalari Oltin O'rdani yaratdilar, ularning ko'pchiligi Oltin O'rdaning katta urushlarida qatnashgan edi. O'shandan boshlab ular "o'zbeklar" deb atalib, turk-mo'g'ul qabilalardan iborat bo'lgan qabilalardan tashkil topgan edi. O'zbeklarning etnik shakllanishi va davlat sifatida nomlanishi O'zbekxon bilan bog'liq bo'lib, bunda uning islom dinini yoyishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Fors mualliflarning yozishicha, O'zbekxoning fors ko'rfazlariga yurushi va doimiy bu hududlar bilan aloqa bog'lab turushi, fors tilining yoyilishi va qabilalarda etnik eralashuvni yuzaga keltirgan"¹⁴. "O'zbek" terminini esa, A.A.Semeyonov aynan O'zbekxon nomidan kelib chiqqanligini uqtirishga harakat qiladi¹⁵.

K.Sh. Shoniyoov o'zbeklarning O'rta Osiyo hududidagi eng qadimgi ajdodlarini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi¹⁶. U bronza davri va ilk o'tra asrlardagi turli etnik jarayonlarning keng manzarasini gavdalantirish, o'zbek xalqining mahalliy etnik zaminda shakllanganligini isbotlashga muvaffaq bo'ldi. O'zbek

¹³Толстов С. П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ. 1947. с. 304.

¹⁴Масов Р. Родившийся на глазах истории (К вопросу образования Узбекской ССР). www.ia-centr.ru

¹⁵Семенов А. А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шайбани-хана: Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск 1. Труды, том XII, Сталинабад, 1954, с. 4.

¹⁶Шаниязов К. Ш. Узбеки-карлуки. – Тошкент: наука, 1964. С. 195. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент. "Фан", 1974. С. 242. Шаниязов К. Ш. К вопросу об участии тюркских племен Центральной Азии и Южной Сибири в этногенезе узбекского народа. // Ист. культурные контакты народов Алтайской языковой общности. Т. I. М., 1986. С. 70 – 73. О роли карлукского компонента в этногенезе узбекского народа. // ОНУ. – 1981. С. 28-37. Шаниязов К. Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент "Фан", 1990. 168 б.

xalqi shakllanishining asosiy davrlarini ochib berib, bu etnik jarayonni turli siyosiy birlashmalar tizimida bosqichma-bosqich kuzatib, XI asr boshida Qoraxoniylar davlatida nihoyasiga yetganligini bayon qildi. Akademik K.Sh. Shoniyozov shunday yozadi: “O‘zbek xalqining etnik tarixi ilk ajdodlari yashagan hudud bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek ajdodlari elat bo‘lib O‘rta Osiyoning Markaziy viloyatlari Movarounnahrda (Farg‘ona vodiysi ham shuning ichida), Xorazmda, Toshkent vohasida, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan. Bu mintaqalar insoniyatning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Sapollitepa, Chust, Zamonbobo va Xorazm zaminida olib borilgan qazilmalardan topilgan materiallardan ma‘lum bo‘lishicha, milloddan oldingi II minginchi yillarda O‘rta Osiyoning bir qancha rayonlarida o‘troq dehqonchilik mavjud bo‘lgan”¹⁷. Shunday qilib, muallif miloddan oldingi VI – IV asrlardagi o‘troq aholi va ko‘chmanchi sak, massaget qabilalari O‘rta Osiyo aholisining keyingi asrlardagi etnik taraqqiyotiga zamin tayyorlab beradi¹⁸.

B.A. Litvinskiy o‘zbek xalqining elat bo‘lib shakllangan vaqtini XV – XVI asrlarda etnik guruhlarining Dashti Qipchoqdan Movarounnahr hududlariga kirib kelganligi bilan bog‘laydi va o‘zbek xalqi elat bo‘lib (etnik birlik) shakllangan davrini XVI asrda deb ko‘rsatadi¹⁹.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalalari bo‘yicha akademik A.A. Asqarovning ham ilmiy tadqiqod ishlari ommaga e‘lon qilingan. Uning “Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа” nomli yirik maqolasida tarixiy, arxeologik, etnografik hamda adabiyotlarga asoslanib, o‘zbek xalqi etnogenezining birinchi bosqichi eramiz boshlaridan boshlangan. O‘zbek etnogenezining ikkinchi davri esa milodiy VI asrning ikkinchi yarmidan boshlangan deb, XIV – XV asrlarni esa bu jarayonning taraqqiy etgan davri deb ta’kidlaydi²⁰.

¹⁷Шонийзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: “Шарк”, 2001. 103 б.

¹⁸O‘sha asar 117 b.

¹⁹Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековье (теоретические аспекты). М. 1990. С. 32.

²⁰Асқаров А.А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа. С.10.

Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnosning paydo bo'lishi, mavjud tasavvurlarga ko'ra, Turk xoqonligi yoki antik davrdan emas, balki ancha avval, bronza davriga borib taqaladi²¹. X asrning oxiri XI asrning boshlariga kelib, o'zbek xalqi etnogenezi tarixida uning xalq sifatida shakllanishi uchun zarur barcha stink belgilar paydo bo'ldi²². Aniqroq aytganda, ma'lum yirik hududiy-geografik viloyatlarda moddiy va ma'naviy madaniyat birligi, antropologik tip birligi, turkiy etnik asosda tuzilgan, o'zlikni anglash va hukmron turkiy etnik asos atrofida jipslashgan va ikki tillilik belgilari asosida qurilgan siyosiy davlat uyushmasi tashkil topdi²³.

Tojikiston FA akademigi Raxim Masovning fikriga qaraganda, "o'zbek" terminining yaratilishi va uning shunday nomlanib kelayotganini 1924 yilda paydo bo'lgan O'zbekiston SSR respublikasi o'rnini muhim deb ta'kidlab, bu haqida bir qancha mulohaza yuritgan. Muallif o'zbek etnogenezi bilan bog'liq fikrda Litvinskiyning noilmiy fikrlarini o'ziga ma'qul ko'rib, bu xususida jiddiy xatolikka yo'l qo'ygan. Uning yozishicha " ...o'zbek etnonimini kelib chiqish tarixi Jo'jivorisi O'zbekxon qo'l ostidagi dashti qipchoq qabilalarining birlashuvi bilan bog'liq. Chingizxon avlodidan bo'lgan O'zbekxon musulmon bo'lgan va o'zini ulusiga musulmon dinini olib kirib tanilgan. Bu ishi bilan u faqat o'zining qo'l ostidagina emas, balki musulmon o'lkasida mashhur bo'ldi. Uning nufuzi tobora ortib borib o'zlarini "o'zbekiylar" atay boshlashdi. Shu yo'l bilan "ozbek" (o'zbek) termini muomalaga kirdi va bu terminni kelib chiqishi O'zbekxon nomi bilan bog'liq"²⁴.

Bunday noilmiy qarashlarda akademik K.Sh. Shoniyozov fikrlarini o'rinli deb qarasak yanglishmaymiz. Ayrim olimlar jumladan, B.A. Litvinskiy, S.P.Polyakovlar O'rta Osiyo xalqlarining etnogeneziga va etnik taraqqiyotiga beg'araz qaramaganlar. Ularning nazarida, bu xalqlar sobiq SSSR tarkibidagi "qoloq" xalqlar bo'lib, faqat keyingi asrlarda ruslar ta'siridagina alohida etnik

²¹Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: Университет 2007. 245 б.

²²O'sha asar. 250 b.

²³O'sha asar. 250 b.

²⁴Масов Р. Родившийся на глазах истории (К вопросу образования Узбекской ССР).www.ia-centr.ru

birlik (elat) bo'lib shakllanganlar²⁵. Shunday ekan, Raxim Masovning fikr – mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, muallif ta'kidlagan fikrlari, ko'rsatgan vaqtlari chuqur ilmiy asoslanmagan, ko'p xolatlarda taxminiy xulosalar tarzda ifodalangan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, insoniyatning qadimgi madaniyat o'choqlaridan hisoblangan mintaqamiz hududidagi xalqlar ajdodlari (jumladan, o'zbek va tojik) qadim davrlardan shu hududda yashab, bir-birlari bilan har doim moddiy va madaniy munosabatlarda aloqa qilib kelganlar. Professor A.Yu.Yakubovskiy aytganidek, “...*xalq tarixini uning nomi tarixi bilan aralashtirish mumkin emas*”²⁶. Chunki ko'rib chiqilgan arxeologik, tarixiy, etnografik, antropologik, lingvistik manbalar va adabiyotlardagi materiallar aynan shuni tasdiqlaydi.

²⁵Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т.: “Шарқ”, 2001. 33 б.

²⁶Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. 20 б.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. –T.: “O'zbekiston” , 1998.

Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. Т.: ЎзФАН 1941.

Толстов С. П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ. 1947.

Семенов А. А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шайбани-хана: Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск 1. Труды, том XII, Сталинабад, 1954.

Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: “Шарк”, 2001.

Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: “Университет”, 2007.

Асқаров А.А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа. С.10.

Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековье (теоретические аспекты). М. 1990.

Масов Р. Родившийся на глазах истории (К вопросу образования Узбекской ССР). www.ia-centr.ru

**Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Markaziy Osiyo xalqlari tarixi
kafedrası II kurs magistranti Abirov Valisherning
« O'zbek xalqi etnogenezi haqidagi fikrlarning tadriji» mavzuidagi
maqolasiga taqriz**

Ma'lumki o'zbek xalqi etnogenezi haqidagi ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunimizga qadar dolzarbligicha qolmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning etnogenezi va etnik tarixini o'rganish, ularni chuqur ilmiy tahlil etish, xolisona baho berish tarixchilarimiz oldiga bir qancha vazifalarni qo'yadi. Tarixning muayyan davrlarida o'zbek etnogenezi masalasi bo'yicha fikr va qarashlar turlicha bayon etildi. Bu ilmiy tadqiqot ishlarini bir – biri bilan qiyoslash,

ularni xronologik o'rganish va tahlil etish yanada chuqur ilmiy izlanishlarni taqdim etadi.

Shu o'rinda Abirov Valisherning «O'zbek xalqi etnogenezi haqidagi fikrlarning tadriji» mavzusidagi maqolasi aynan shunday dolzarb masalani o'rganishga bag'ishlangan ishlar sirasiga kiradi. Mazkur maqolada o'zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir fikr, qarashlarning tadrijiy rivoji aks ettirilgan. Jumladan, tarixchi olimlar A.Yu. Yakubovskiy, S.P. Tolstov, A.A. Semeyonov, K.Sh. Shoniyozov, B.A. Litvinskiy, A.A. Asqarov va Raxim Masovlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari va qarashlarini hamda bu fikrlar qaysi asarlarda keltirilganligini mazkur maqolada ilmiy til negizida shakllantirilgan. Ushbu maqola orqali o'zbek xalqi etnogenezi masalasini yoritishda ob'ektiv yondashuv qay shaklda rivoj topganligini yaqqol ko'rish mumkin. Shunday ekan mazkur maqolaning nashr etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Markaziy Osiyo xalqlari

kafedrasi t.f.d., prof.

Doniyorov A.X.